

TIL VA NUTQ BIRLIKLARINING O'ZARO MUNOSABATI XUSUSIDA*D. Turniyozova¹**Annotatsiya:*

Maqolada til birliklarining nutqqa ko'chirilishi jarayonidagi paradigmatic, sintagmatik va iyerarxik munosabatlar xususida mulohaza yuritilmoqda. Mazkur masala yuzasidan qator tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari tahlil etilmoqda.

Kalit so'zlar: paradigmatica, sintagmatika, sistema, fonema, morfema.

doi: <https://doi.org/10.2024/b6w2k778>

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davriga qadar ulkan yutuqlarga erishildi. Buni fonetik-fonologik, morfologik, sintaktik tadqiqotlarning xar birida kuzatish mumkin. Biroq boshqa fanlar bilan bir qatorda tilshunoslik ham har doim taraqqiyotdadir. Shu bois bunda tadqiq etilishi dolzarb bo'lgan muammolar mudom ko'zga tashlanib turadi. Bunday muammolar jumlasiga bugungi tilshunoslikda dolzarb hisoblanayotgan nutq lingvitsikasining to'liq shakllanishi bilan bog'liq masalalarni ham kiritish mumkin. Bu juda muhimdir, chunki til birliklarining nutqqa kuchirilishi nutq lingvitsikasi bilan uzviy aloqadordir.

Til birliklarining nutqqa ko'chirilishi jarayonida ular o'rtasida quyidagi uch xil munosabat shakllanadi: 1. Paradigmatik munosabat. 2. Sintagmatik munosabat 3. Ierarxik (pog'onali) munosabat. Ushbu munosabatlarning o'ziga xos qonuniyatlariga ega bo'lishiga qaramay, ular o'zaro bog'liq holda faollik ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, ularning biri bo'lmas ekan ikkinchisi tom ma'noda shakllana olmaydi. Bu esa, o'z navbatida, sitsemaning beka mu ko'ts qo'llanilishiga putur etkazadi.

Darhaqiqat, ushbu munosabatlarining aksariyat hollarda o'zaro kesishishini ko'ramiz. Masalan, so'z tarkibida fonemalar va morfemalar paradigmatic munosabatini ko'rish qiyin emas (fonemalar paradigmasi, morfemalar paradigmasi). Ayni paytda fonemalar va morfemalarning sintagmatik bog'lanishi ham shakllanadi va nihoyat fonemalar bilan morfemalarning, morfemalar va so'z o'rtasidagi ierarxik bog'lanish ham sodir bo'ladiki, bu narsa o'sha murakkab jarayonni taqazo etadi. Bu jarayon esa, o'z navbatida, til birliklarining nutqqa ko'chirilishi va qo'llanilishini aks ettiradi.

Til birliklarining vertikal reja bo'yicha tashkil etiladigan munosabatini F. de Sossyur assotsiativ munosabat deb ataydi. Bu haqda u quyidagilarni yozadi: «Nutqdan tashqari holda so'zlar bir-biri bilan umumiy belgilarga ko'ra birlashadi va ongimizda muayyan umumiylikni tashkil etadi. Bu jarayonda o'ziga xos guruhlar voqealanadi. Bunday holatda assotsiativ munosabat vujudga keladi» [1.155]. Albatta, assotsiativ munosabat gorizont al rejaga ko'ra emas, balki, vertikal rejaga ko'ra shakllanadi. Zotan, bunday reja hali ongimizda bo'ladi. Assotsiativ munosabatni ta'bir joiz bo'lsa, cheksiz deb atash mumkin, chunki u tilimizdagi bir-biri bilan umumiylik tashkil etuvchi barcha so'zlarni

¹ Turniyozova Dildora Behzod qizi, Samarqand davlat chet tillar intsituti

umumlashtiradi. Masalan: ish, ishchi, ishsiz, ishbilarmon, ishbay, ishboshi, ishboshilik, ishboshqaruvchi, ishbuzar, ishbuzuqi, ishyoqmas, ishlamoq, ishlanmoq, ishlatilmoq, ishlatmoq, ishlash, ishlashmoq va h.k. Shuni ham aytish kerakki, bugungi kunda til birliklarining assotsiativ munosabati murakkab termini o'rniga til birliklarining paradigmatic munosabati termini qo'llanilmoqda. Paradigmatic munosabat termini ilmiy itse'molga L.Elmslievning «Glossematik nazariyasi» orqali kirib keldi. Boshqacha aytganda, Kopengagen tilshunoslik maktabida paradigmatic munosabat va paradigma terminlari ilk bor qo'llanilib, keyinchalik bu narsa jahon tilshunosligida ommalashib ketdi.

Paradigmatika termini paradigma terminiga asoslanadi. Ular bir ikkinchisi bilan uzviy bog'lanadi. Quyida akademik A.Hojievning bu terminlarga bergan izohi bilan tanishishni maqsadga muvofiq topdik: «Paradigma (grekcha paradeigma-misol, namuna). Til birliklari grammatik formalarining umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nolarga ko'ra farqlanuvchi sitsemasi. Masalan: otlarning kelishik bilan turlanish paradigmasi, fe'llarning shaxs-sonda tuslanish paradigmasi kabi»[2.67].

«Paradigmatic munosabat. Bir pradiqmaga birlashuvchi til birliklarining o'zaro munosabati». Biroq A.Hojievning paradigmatic munosabat haqidagi izohini keng ma'noda tushunmoq lozim bo'ladi. Chunki mazkur munosabat bugungi tilshunoslikda nafaqat so'zlarning, balki gaplarning ham bir paradigmaga birlashishini o'z ichiga olmoqda va bunday munosabat sintaktik pradiigmatika nomi atalmoqda. Umuman olganda, pradiigma tushunchasi til va nutq birliklarining barchasiga xosdir. Bunda kichik pradiigma katta pradiigma tushunchalarida ilmiy ravishda amal qiladi. Fikr dalilini quyidagilarda ko'rish mumkin. Masalan, tilimizning fonetik sitsemasini olaylik. Ayni paytda, albatta, fonemalar diqqat markazimizda bo'ladi va birinchi navbatda unlilar paradigmasi va undoshlar paradigmasi degan voqelikka duch kelamiz. Albatta, ularning har biri katta paradigmani taqozo etadi. Ammo unlilar paradigmasi ham, o'z navbatida, yana kichik paradigmalariga bo'linadi. Til oldi unlilari alohida paradigmani, til orti unlilari ham alohida paradigmani tashkil etadi.

Undoshlar ham, o'z navbatida, portlovchi, sirg'aluvchi va h.k. kabi kichik paradigmalariga bo'linadi. Ushbu paradigmalarda, albatta, fonemalar vakumda emas, balki biri ikkinchisi bilan o'zlarining fonetik xususiyatlariga ko'ra bog'langan bo'ladi. Bunda har bir kichik detal ham e'borda bo'ladi. Masalan, fonemalarning differentsial xususiyatlarini olaylik. Bunday xususiyatlar birgina fonemaning o'zida ham ko'zatish mumkin: a^1 , a^2 , a^3 .

Bu haqda fikr bildirganida V.M.Solntsev bergan misollarni aynan keltirishni maqsadga muvofiq deb topdik: «... a – o – u – ы (va boshqa.) paradigmatic qatorning o'zi paradigmalaridan tashkil topadi, zotan, a bir necha variantlar paradigmasini taqozo etadi: $a = a^1, a^2, a^3, a^4 \dots$; o ham bir necha variantlar paradigmasini o'zida namoyon etadi: $o = o^1, o^2, o^3 \dots$; ы = ы¹, ы², ы³ va h.k.»[3.74]

Mazkur belgilar fonemalarning real qo'llanishida ko'zga tashlanadi (masalan, yumshoq talaffuz, qattiq talaffuz). Bu jarayonda, albatta, *pozitsiya* (holat) tushunchasi ahamiyat kasb etadi. M.V.Panov paradigma tushunchasiga izoh berganida tubandagilarni to'g'ri ta'kidlaydi: «Paradigma til birliklarining muayyan qatori bo'lib, ular o'rtasidagi farq pozitsiyalariga ko'ra belgilanadi». Olim bu haqda yana quyidagilarning eslatadi: «*Paradigma* terminini boshqacharoq izohlashadilar ham. Unga ko'ra, yagona pozitsiyada keladigan til birliklari paradigma hosil qiladi, degan tushuncha nazarda tutiladi»[4.6].

Nazarimizda, M.V.Panovning ushbu mulohazalariga to'liq qo'shilish mumkin, zotan, til birliklarining nutqda qo'llanilishida muayyan paradigmalar hozir bo'lishiga e'tibor qaratir ekanmiz, bu jarayonda *pozitsiya* tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, bu o'rinda tsruktur tilshunoslikda keng qo'llaniladigan *ditsributsiya* terminidan ham foydalanish mumkin. Chunki ayni paytda *pozitsiya* va *ditsributsiya* terminlari bir ma'no kasb etadi.

Y.S.Tsepanov ham paradigmatic munosabat tushunchasi haqida so'z yuritganida *pozitsiya* termining qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratgan edi: «Paradigmatic munosabat – bu muayyan bir pozitsiyada bir birlarini almashtira oladigan til birliklarining munosabatidir»[5.258].

Shuni ham aytish kerakki, til birliklari paradigmatalari o'ta murakkab sitsemani taqozo etadi. Ular mikro- va makroparadigmatalarga bo'linadi. Mikroparadigmatalar aksariyat hollarda makroparadigma ichida qo'llanadi. Superparadigma haqida esa bunday mulohaza yurita olmaymiz, zotan, ulardan katta paradigmatalarni kuzatish qiyin. Bu xususda mulohaza yuritganida N.Q.Turniyazov qo'yidagilarni qayd etadi: «Paradigma tushunchasiga morfologik nuqtaiy nazardan yondoshganimizda ham yuqoridagi vaziyatni kuzatamiz. Bunda supermakroparadigmatalarni so'z turkumlari majmuasi tashkil etadi va uning makroparadigmatalarini fe'l paradigmatalari, ot paradigmatalari, sifat paradigmatalari kabilar hosil qiladi»[6.63-64].

Ayni paytda shuni ta'kidlash lozimki, makroparadigmatalar yana mikroparadigmatalarga bo'linadi. Bu o'rinda har bir paradigma a'zolari (super-makro- yoxud mikroparadigmatalarning barchasida), bir – birlari bilan umumiy belgilariga ko'ra munosabatda bo'ladi. Bunday munosabat, albatta, vertikal rejaga asoslanadi:

Akam	maktabda	ishlaydi.
Opam	shaharda	yashaydi.
Ukam	hovlida	turadi.

Ketirilgan misolda olmoshlar, otlar, fe'llar alohida paradigmatalarni tashkil qilayotganini ko'ramiz. Ularning hammasi nisbiy makroparadigmatalar hisoblanadi, chunki har bir so'z ichida fonemalar va morfemalarning mikroparadigmatalari mavjudligini ko'ramiz.

Berilgan misolda biz makroparadigmatalar a'zolarining vertikal chiziqda o'zaro bog'lanishni ko'rsatdik. Ammo makroparadigmatalar ichida ham fonema va morfemalar xuddi shunday vertikal holatda bog'lanmoqdalar.

Til birliklarining paradigmatalarga birlashishi ularning distributiv xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Agar distributiv xususiyatlari to'g'ri kelmasa, ular shu o'rinda qo'llana olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. -М., 1977.
- [2]. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Тошкент, 1985.
- [3]. Солцев В.М. Язык как системно-структурное образование. -М., 1971.
- [4]. Панов М.Б. Русская фонетика. -М., 1967.
- [5]. Степанов Ю.С. Основа общего языкознания. -М., 1975.
- [6]. Турниязов Н. Гапнинг бевосита иштирокчилар ва трансформацион методлар асосидаги таҳлили//Структур синтаксис асослар. -Тошкент, 2009.